

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2021- yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)

Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-dekabr oylarida (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm) 2 402,3 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Namangan shahrida **2 979,6** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **124,0** %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Chust tumanida 1 780,8 ming so'mni (74,1 %), Chortoq tumanida 1835,5 ming so'mni (76,4 %), Kosonsoy tumanida 1 968,4 ming so'mni (81,9 %) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)




Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)


	2020- yil yanvar- dekabr	2021- yil yanvar- dekabr	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	2066,2	2402,3	116,3
Namangan sh	2480,4	2979,6	120,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1707,9	2092,5	122,5
Kosonsoy	1789,6	1968,4	110,0
Namangan	1877,6	2323,5	123,7
Norin	1801,4	2141,6	118,9
Pop	1830,3	2114,2	115,5
To'raqo'rg'on	2164,0	2411,9	111,5
Uychi	1843,4	2074,3	112,5
Uchqo'rg'on	2103,8	2191,9	104,2
Chortoq	1649,8	1835,5	111,3
Chust	1609,6	1780,8	110,6
Yangiqo'rg'on	1950,2	2237,3	114,7

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr, viloyat ko'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 226,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 101,0 % ga ko'paygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 645,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 141,7 % ga ko'paygan.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 861,7 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 125,3 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 342,4 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 97,5 % ga kamaygan.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 927,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,6 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 688,3 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 128,4 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 303,9 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,6 % ga oshdi.



➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 942,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 818,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 128,1 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)


	2020- y.	2021- y.
Namangan viloyati	2 066,2	2 402,3
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha		
 Sanoat	2 205,4	2 226,6
 Tashish va saqlash	2 403,4	2 342,4
 Savdo	2 283,1	2 861,7
 Axborot va aloqa	2 427,4	2 927,3
 Moliya va sug'urta	4 430,0	5 688,3
 Ta'lim	1 959,5	2 303,9
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1 792,5	1 942,7
 Qurilish	2 572,4	3 645,4
 Boshqa faoliyat turlari	2 200,6	2 818,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da.

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Namangan viloyati bo'yicha 2021 - yil yanvar-dekabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati qurilish sohasida **141,7 %**, savdo sohasida **125,3 %**, axborot va aloqa sohasida **120,6 %**, Moliya va sug'urta sohasida **128,4 %**, ta'lim sohasida **117,6 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **108,4 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 - yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda





Ma'lumot uchun: “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil 17– avgustdagi PF-6279-sonli farmoniga asosan 822,000 so‘mni tashkil etgan) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo‘limi
(71) 211-72-00